

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>M.M.Kaxarova, D.A.Muxammadaminova</b>	
Dars samaradorligini oshirishda til o'rganuvchilarning o'zlashtirish jarayonini baholash .....	538
<b>M.V.Nasridinov</b>	
Buyruq nutqiy aktlarining tilshunoslikdagi ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog'liqligi .....	542
<b>Sh.H.Nuritdinova</b>	
Online english language learning and its promotion .....	547
<b>M.M.Nurmatova</b>	
Development of intercultural communicative competence .....	551
<b>M.M.Nurmatova</b>	
The importance of "Face" phenomenon in uzbek and english communication .....	553
<b>Z.Sh.Pazilova</b>	
Nemis taufen (suvga cho'mish marosimlari) leksik birligining lingvokulturologik tadqiqi.....	556
<b>D.R.Ubaydullayeva</b>	
Nutq so'zlashda qo'rquvni yengish: sabablar va takliflar.....	559
<b>Ш.Ё.Усмонова</b>	
Анализ семантики ландшафтных терминов в узбекском и английском языках и особенности их употребления.....	562
<b>Sh.M.Yusufjonova</b>	
Milliy mentalitet va idiomalar: memis va o'zbek frazalogizmlarining madaniy ta'siri .....	566
<b>Sh.M.Yusufjonova</b>	
Nemis va o'zbek frazalogizmlarida xalqning dunyoqarashi: madaniyat va tilshunoslik asosida .....	570
<b>S.A.Yusupova, D.A.Ganiyeva</b>	
Hurmat konsepti va stilistik vositalarning o'zaro uyg'unligi.....	574
<b>F.B.Abduraximova</b>	
Ingliz va o'zbek tillarida okkazional so'zlarning lingvokulturologik xususiyatlari .....	577
<b>A.O.Oxunov</b>	
Ingliz tilida wh his-hayajon gaplarining turlari va sintaktik vazifalari.....	582
<b>D.K.Jumaniyazov</b>	
Developing language skills and cultural competence in english through films .....	586
<b>Д.Ш.Ибрагимова</b>	
Эффективность использования театрализации в обучении иностранного языка.....	589
<b>Д.Х.Муротова</b>	
Лингвокультурологическое исследование речевого акта извинения .....	596
<b>F.B.Abduraximova</b>	
O'zbek va ingliz tillarida affiksatsiya usulida so'z yasalishining o'ziga xos xususiyatlari.....	599
<b>Sh.F.Latipov</b>	
Lingvistik bo'shlinqi to'ldirishning 6 xil yo'li .....	604
<b>Г.Т.Галимуллина</b>	
Сопоставительный анализ фразеологических единиц с компонентом драгоценные камни и металлы английского и русского языков во фразеосемантическом поле «Доброта» .....	608
<b>M.A.Ahundjanova</b>	
Foreign languages and their teaching methodologies .....	611
<b>F.T.Raximova</b>	
Nutqiy aktlarni ifodalovchi leksik vositalar .....	615
<b>Sh.Z.Xolmatov</b>	
The history of argots' origin in english speaking countries, Russian and Uzbekistan .....	618
<b>T.R.Madinakhan</b>	
Kinoyaning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari ifodasiga nazariy yondashuvlar .....	623
<b>Z.A.Qochqorova</b>	
O'zbek va ingliz tillarida "To'y – wedding" mavzusidagi paremiologik birliklarning qiyosiy tadqiqi .....	628
<b>M.B.Yusupova</b>	
O'zbek va ingliz tillarda evfemizatsiyalashgan maqol hamda matallarda milliy madaniy kod tahlili .....	633



УО'К: 81.1.323(575.1).894.

**NEMIS TAUFEN (SUVGA CHO'MISH MAROSIMLARI) LEKSIK BIRLIGINING  
LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI**

**ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ НЕМЕЦКОЙ ЛЕКСИКИ TAUFEN  
(КРЕЩЕНИЕ)**

**A LINGUOCULTURAL STUDY OF THE GERMAN LEXICAL UNIT TAUFEN (BAPTISM)**

Pazilova Zilola Shuxratovna 

Farg'onan davlat universiteti f.f.f.d., (PhD) katta o'qituvchi

**Annotatsiya**

*Ushbu maqola nemis tilidagi "suvga cho'mish" marosimlarining lingvokulturologik tahlilini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, marosimning tarixiy, diniy va ijtimoiy ahamiyatlarini keng yoritadi. Suvga cho'mish xristianlikning eng qadimiy amallaridan biri sifatida insonning Xudo bilan ruhiy alogasini ta'minlaydi. Maqolada ushbu marosimning yahudiylikdagi ildizlari va Iso tomonidan belgilangan diniy amaliyot sifatidagi o'mi tahsil qilingan. Nemis tilshunos olimlarining tadqiqotlariiga tayangan holda, suvga cho'mishning tarixiy rivojlanishi, ramziy ma'nolari va turli cherkov oqimlarida amaliyotdagi tafovutlari ko'rib chiqilgan.*

*Pravoslavlikda to'liq suvga botirish, katoliklikda suv sepish yoki peshonaga suv surtish, protestantizmda esa ruhiy poklanishga urg'u berish kabi udumlar aniqlangan. Suv, oq libos, xoch belgi va shamcha kabi ramzlarining diniy va ijtimoiy ahamiyati ham ochib berilgan. Bugungi kunda suvga cho'mish marosimlari nafaqat diniy, balki ijtimoiy voqealari ham katta ahamiyatga ega ekani qayd etilgan. Mazhablar o'tasidagi tafovutlar, bu marosimning ijtimoiy birlashuvdagi o'mi va zamonaviy talqin kelgusida chuqurroq tadqiqotlarni talab qiladi.*

**Аннотация**

Данная статья посвящена лингвокультурологическому анализу ритуалов крещения в немецком языке, освещая их историческое, религиозное и социальное значение. Крещение, являясь одной из древнейших христианских практик, символизирует духовное единение человека с Богом. В статье рассматриваются еврейские корни крещения и его утверждение как религиозной практики Иисусом. С опорой на исследования немецких лингвистов изучаются историческое развитие, символические значения и различия в практике крещения в различных христианских конфессиях.

В анализе отмечены различия в практиках: полное погружение в православной традиции, окропление или помазание лба водой в католицизме, а также акцент на духовное очищение в протестантизме. Символы, такие как вода, белые одежды, крест и свечи, интерпретируются с точки зрения их религиозного и социального значения. Сегодня крещение рассматривается не только как религиозный обряд, но и как важное социальное событие. Различия между конфессиями, роль крещения в социальном единении и его современные интерпретации подчеркивают необходимость дальнейших углубленных исследований.

**Abstract**

*This article focuses on the linguo-cultural analysis of "baptism" rituals in the German language, shedding light on their historical, religious, and social significance. Baptism, as one of the oldest Christian practices, symbolizes the spiritual union between humans and God. The article examines the Jewish roots of baptism and its establishment as a religious practice by Jesus. Drawing on studies by German linguists, it explores the historical development, symbolic meanings, and practical variations of baptism across different Christian denominations.*

*The analysis highlights variations in practices: full immersion in Orthodox traditions, sprinkling or anointing the forehead with water in Catholicism, and emphasizing spiritual cleansing in Protestantism. Symbols such as water, white garments, the cross, and candles are interpreted for their religious and social importance. Today, baptism is noted not only as a religious rite but also as a significant social event. The differences between denominations, the role of baptism in social cohesion, and its modern reinterpretations suggest the need for further in-depth studies.*

**Kalit so'zlar:** suvga cho'mish, xristianlik, pravoslavlik, katoliklik, protestantizm, diniy amaliyot, ramziy ma'no, ijtimoiy ahamiyot, ma'naviy yangilanish.

**Key words:** baptism, Christianity, Orthodoxy, Catholicism, Protestantism, religious practice, symbolic meaning, social significance, spiritual renewal.

**Ключевые слова:** крещение, христианство, православие, католицизм, протестантизм, религиозная практика, символика, социальная значимость, духовное обновление.

## KIRISH

Suvga cho'mish marosimi – bu xristianlikdagi eng qadimiy va muhim marosimlardan biri bo'lib, insonning Xudo bilan ruhiy birlashishini ta'minlaydi. Bu jarayon nasroniylikning barcha asosiy oqimlarida (katolik, pravoslav va protestant) mayjud bo'lsa-da, amaliyat va tafsirda ayrim farqlar kuzatiladi. Suvga cho'mish Iso Masih tomonidan belgilangan diniy amallardan biri bo'lib, Matto 28:19–20 da u keyingi avlodlariga o'z dinidagi kishilarga bola tug'ilgandan keyin bir yoshdan 14 yoshgacha davrda suvga cho'mish marosimini o'tkazishni buyurgan. Ushbu maqolada suvga cho'mish marosimining tarixiy ildizlari, diniy ma'nolari, amaliyotdagi xilma-xilliklari va jamiyatdagi o'rni tahlil qilindi.

## ADABIYOTLAR SHARHI VA METODOLOGIYA

Suvga cho'mish marosimi bo'yicha turli ilmiy manbalarda nemis adabiyotida turli diniy, tarixiy va madaniy kontekstlarda ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan. Quyida ushbu mavzuni o'rganishga bag'ishlangan muhim nemis adabiyotlaridan ba'zilari keltiriladi:

**Nemis tilshunos olimi Joachim Jeremiasning "Die Kindertaufe in den ersten vier Jahrhunderten"** (To'rtinchchi asrda chaqalojni suvga cho'mish) asarida erta xristianlik davrida bolalarning suvga cho'mish marosim tarixi va teologik asoslari muhokama qilinadi. Tadqiqot suvga cho'mish marosimi amaliyotining rivojlanish bosqichlariga e'tibor qaratadi. **Nemis tilshunos olimi Karl Barthning "Die kirchliche Dogmatik, Band IV/4: Die Lehre von der Taufe" (1967)** (**Cherkov dogmatikasi, IV/4 jild: Suvga cho'mish ta'lomit**) asari suvga cho'mish marosimining teologik ahamiyati va ramzlarini chuqur o'rganadi. Ayniqsa, protestant an'analari doirasida marosimning mohiyati tahlil qilingan.

**Hans Kung "Christentum – Wesen und Geschichte" (Xristianlik - tabiat va tarix)** (1994) xristianlikning umumiyligi tarixi va mohiyatini o'rganar ekan, suvga cho'mish marosimi haqida ham so'z yuritadi. U tarixiy rivojlanish jarayonida bu marosimning qanday o'zgarganini tahlil qiladi. **Friedrich Schleiermacher esa o'zining "Über die Taufe" (Suvga cho'mish haqida)** (1823) Schleiermacher bu asarida suvga cho'mishning individual ruhiy tajribaga ta'sirini va uning jamoat bilan bog'liq ijtimoiy ahamiyatini o'rganadi. **Arnold Angenendt "Taufe und Taufriten: Ursprung und Bedeutung in der Geschichte"** (**Suvga cho'mish marosimlarining tarixiy kelib chiqishi va ahamiyati**) (2004) asarida suvga cho'mish marosimining madaniy va antropologik tomonlari, shuningdek, uning diniy marosim sifatidagi tarixiy ildizlari va zamonaviy jamiyatdagi o'rnini yoritib beradi.

Ushbu adabiyotlar **suvga cho'mish marosimlarining** teologik, tarixiy va ijtimoiy jihatlarini chuqur tahlil qiladi hamda tadqiqotlarda bu mavzuning keng o'rganilganini ko'rsatib beradi.

## NATIJA VA TAHILLAR

Suvga cho'mish marosimlarining ildizlari yahudiylilikdagi pokdanish amaliyotlariga borib taqaladi. Yahudiylar gunohlardan tozalash yoki muqaddaslik uchun suvga cho'mish marosimlarini o'tkazganlar. Xristianlikda esa bu amaliyat Isoning **suvga cho'mish marosimlari** va uning ko'rsatmalari bilan bog'liqligini kuzatish mumkin. [1,67]

Suvga cho'mish marosimlarining turli xil amaliyotlari cherkov oqimlariga ko'ra quyidagi shakllarda amalga oshirilib kelingan. Masalan, pravoslav va ba'zi protestant cherkovlari to'liq suvga botirish orqali, katolik cherkovlar suv sepish yoki peshonaga suv surtish amallari orqali va evangelik cherkovlar esa suv sepish yoki ruhiy poklanishga urg'u berish kabi udumlar orqali amalga oshirib kelishganligini ko'rish mumkin.

Suvga cho'mish marosimlarining ramziy ma'nolarini quyidagilar orqali belgilash mumkin:

- **Suv:** gunohlardan tozalash va yangi hayot boshlash ramzi.
- **Oq libos:** ruhiy poklik va yangi tug'ilish.
- **Xoch belgi:** nasroniylik jamiyatiga kirishning belgilovchisi.
- **Shamcha:** ruhiy nur va Xudo yo'lliga rahbarlik.[2,144]

Bugungi kunda suvga cho'mish marosimlarini nafaqat diniy marosim, balki ijtimoiy voqealarning sifatida ham qaraladi:

- oilalarda bu tadbir ijtimoiy birlashuv va quvonch manbai sifatida nishonlanadi.
- zamonaviy protestantizmda suvga cho'mish insonning o'z ixtiyori bilan qabul qiladigan qarori sifatida qabul qilinadi.[5.98]

Suvga cho'mish marosimlarining yahudiylikdagi ildizlari va Iso tomonidan tasdiqlangan amaliyat sifatida ahamiyati beqiyosdir. Bu marosim orqali inson Xudo bilan ruhiy aloqani tiklaydi va o'zini nasroniy jamiyatiga daxldor deb his qiladi. [3,78]

Mazhablar o'tasida suvga cho'mish marosimlarining turli shakllari diniy talqinlarning xilmalligidan kelib chiqadi. To'liq suvga botirish pravoslav cherkovlari tomonidan Muqaddas Kitobda ko'rsatilgan eng yaqin shakl sifatida qabul qilinadi. Suv sepish esa amaliy qulaylik uchun joriy etilgan bo'lib, bu go'daklar uchun keng qo'llaniladi. [4,78]

Turli jamiyatlarda suvga cho'mish marosimlari madaniy jihatdan ham o'z o'rniغا egaligi kuzatiladi. Ayrim mintaqalarda bu marosim katta bayram sifatida o'tkazilsa, boshqa joylarda ko'proq diniy va xususiy xususiyatga ega.

### XULOSA

Suvga cho'mish marosimlaring maqsadi nasroniy e'tiqodini ifoda etish va ma'naviy yangilanishni ramziy aks ettirishdir. Biroq, uning mazmunini yanada chuqurroq anglash uchun qo'shimcha tadqiqotlar talab qilinadi.

- suvga cho'mish marosimlarining zamonaviy ijtimoiy ma'nosini qanday rivojlanmoqda?
- Dunyoviy jamiyatlarda bu marosimni qayta talqin qilish ehtimoli bormi?

Suvga cho'mish marosimlari xristianlikdagi markaziy diniy amaliyotlardan biri bo'lib, uning ildizlari yahudiylikka borib taqaladi. Bu jarayon insonning Xudo bilan bog'lanishini ta'minlaydi, yangi hayotga yo'l ochadi va nasroniy jamiyatiga qabul qilinishni ifodalaydi. Amaliyotdagi farqlar, ramziy ma'nolar va ijtimoiy ahamiyat suvga cho'mish marosimlarini universal va barqaror diniy hodisa sifatida ta'riflash imkonini beradi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Joachim Jeremiasning. Die Kindertaufe in den ersten vier Jahrhunderen. Schneider Verlag. – 2009. – S.209.
2. Karl Barthning. Die kirchliche Dogmatik, Band IV/4: Die Lehre von der Taufe. Berlin. Langenscheidt. – 1967. – S. 304.
3. Hans Kung "Christentum – Wesen und Geschichte. Berlin. Langenscheidt. – 1994. –S.206.
4. Friedrich Schleiermacher. Über die Taufe. Berlin. Langenscheidt. –1987.-S. 146.
5. Arnold Angenendt. Taufe und Taufriten: Ursprung und Bedeutung in der Geschichte. Ernst Klett Sprachen GmbH, Stuttgart. – 2004. – S.176.